

AYOLLAR YENGIL KIYIMLARI

*Toshkent viloyati Yuqori Chirchiq tumani
 Kasb-Hunar Maktabi Maxsus Fan O'qituvchisi
 Bekaliyeva Aliya Sidikbayevna*

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada ayollar figurasingin tuzilishi, kiyim va uning konstruksiyasi to‘g‘risida umumiy ma'lumotlar keltirilgan. Konstruksiyalash sistemalarining xususiyatlari qisqacha yoritilgan. Ushbu qo'llanmada maishiy xizmat tizimida qo'llaniladigan yagona konstruksiyalash usuli asosida ishlangan ayollar kiyimlarinng turli siluetli shakllarining konstruktiv yechimlari berilgan.

KALIT SO‘ZLAR: Ko‘ylak, qaychi, ip, shim, yubka, yoqa, yelim qotirma, bel kiyimlari, model, kiyim, gazlama, bezak, talab, gavda, koketka, yeng, bichim, mavsum.

ЖЕНСКАЯ ЛЕГКАЯ ОДЕЖДА

Ташкентская область, Верхне-Чирчикский район
 Учитель специальных наук профессиональной школы
 Бекалиева Алия Сидикбаевна

АБСТРАКТНЫЙ: В данной статье даны общие сведения о строении женской фигуры, одежде и ее построении. Кратко освещены особенности строительных систем. В данном пособии приведены конструктивные решения различных силуэтных форм женской одежды, выполненных на основе единого метода конструирования, используемого в системе бытового обслуживания.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:Рубашка, ножницы, нитки, брюки, юбка, воротник, клей, поясная одежда, модель, одежда, марля, украшение, запрос, тело, кокетливый, рукав, фасон, сезон.

WOMEN'S LIGHTWEIGHT CLOTHING

*Tashkent region, Upper Chirchik district
 Vocational School Special Science Teacher
 Bekaliyeva Aliya Sidikbayevna*

ABSTRACT: This article provides general information about the structure of the female figure, clothing and its construction. Features of construction systems are briefly covered. In this manual, constructive solutions of various silhouette forms of women's clothes made on the basis of the single construction method used in the household service system are given.

KEY WORDS: Shirt, scissors, thread, trousers, skirt, collar, glue, waist clothes, model, clothes, gauze, decoration, request, body, coquettish, sleeve, style, season.

Kiyim inson tanasini atrof muhitning turli xil nomaqbul ta'sirlaridan, ya'ni issiq, sovuq, nam, chang va boshqa ta'sirlardan asraydigan o'simlik, hayvonot hamda sun'iy gazlamalardan tayyorlanadigan, shuningdek, bezak vazifasini o'taydigan narsaga aytiladi. Har qanday kiyim estetik - gigiyenik, texnik talablarga javob berishi, odamni dam olishida, mehnat qilishida, sport bilan shug'ullanishida qulay bo'lishi kerak. Kiyim nimaga mo'ljallanganidan qat'iy nazar odamga yarashadigan bo'lishi kerak. Kiyimlar yashalayotgan hududning geografik joylashuvidan, iqlim sharoitidan, an'ana va urfatlaridan kelib chiqqan holda rivoj topib kelmoqda. Bizning boy tariximizni ifodalaydigan, iqlim sharoitlaridan kelib chiqqan holda o'z ko'rinishiga ega bo'lgan kiyimimiz bu ayollar o'zbekcha milliy ko'ylagidir. An'anaviy milliy ko'ylak gavda qismi to'g'ri bichimli, koketka chizig'i bo'ylab burmali bo'ladi. Koketka asosan ko'ylakning gavda qismiga ulanadigan chizig'i bo'ylab dumaloq bo'ladi. Old tomonda koketka bo'laklari bir-birining ustiga o'tib turadi. An'anaviy milliy ko'ylak gavda qismi to'g'ri siluetli, koketka chizig'i bo'ylab burmali bo'ladi. Klassik o'zbekcha ko'ylak koketkasi asosan ko'ylakning gavda qismiga ulanadigan chizig'i bo'ylab oval shaklida bo'ladi. Old tomonda koketka yaxlit yoki bo'rtli bo'lib, bo'laklari bir-birining ustiga o'tib turadi. Yoqasi qirqma shaklda yoki yoqasiz bo'lishi ham mumkin. Yoqa o'mizining o'yig'i to'rburchak, uzaytirilgan, dumaloq oval va h.k. shaklida bo'lishi mumkin. Hozirgi paytda ayollarning milliy o'zbekcha ko'ylagida ma'lum o'zgarishlar bo'lmoqda. Ko'ylak gavda qismining silueti, hajmi va uzunligi qisqarmoqda. Koketka, yoqa, yenglarning katta-kichikligi va shakliga ko'pgina omillar, shu jumladan moda ta'sir etmoqda. Lekin milliy ko'ylak ko'p zamon sinovlaridan o'tgan bo'lsada, xali hanuzgacha ayollar garderobida alohida o'rniga ega. Kiyimni tikishdan oldin uni loyihalash kerak. Kiyimni loyihalashda esa gavdadan aniq olingan o'lchovlar ishlatiladi. Buning uchun santimetrlı lenta olib, kiyim tikmoqchi bo'lgan kishi gavdasini o'lhash kerak. Bu ishni bajarayotganda odam tovonlarini juftlab, ikkala oyog'ida, gavdani tabiiy holatda bo'sh qo'yib, qo'llarini tushirib tinch turish kerak. O'lchovlar aniq o'lchansagina gavdaga moslab kiyim tikilishi mumkin, aks holda kiyim gavdaga yopishib turmaydi va ko'plab nuqsonlar kelib chiqish mumkin. Eng asosiy bosqich bu loyihalash jarayonida gavdadan o'lchov olish jarayonidir. Loyihachi faoliyatining eng qiyin va ma'suliyatli bosqichilari kiyim detallarining chizmasi yoyilmasini chizishdan iborat. Bu ishning murakkabligi shundaki, faqat ta'rifi, eskizi yoki namunasigina berilgan, lekin o'zi yo'q kiyimning chizmasini — detallari yoyilmasini chizishga to'g'ri keladi. Buning ustiga, kiyimning sirti murakkab, yoyib bo'lmaydigan sirt hisoblanadi.

Shunga ko‘ra uning yoyilmasi va hisobi, ya’ni uni chizish uchun kerak bo‘ladigan ma’lumotlani hisoblab chiqarish va chizmani chizish ancha qiyin. Kiyim gavda yuzasining shaklini to‘la takrorlamaydi va gavdaning u yoki bu joylariga turlicha yopishib turadi. Ma’lumki, ko‘krak qismida, belda, bo‘ksada kiyimning gavdaga qay darajada yopishib turishi, kiyim bichimini (siluetni) belgilaydi. Kiyim bichimi yelka kengligi va balandligi, modelning etak kengligi bilan ham xarakterlanadi. Kiyim qay darajada gavdaga yopishib turishiga qaramay, uning ichki o‘lchamlari odam gavdasining o‘lchamlaridan katta bo‘ladi. Shuning uchun kiyim loyihasi asosining chizmasini tuzish uchun gavda o‘lchamlarining o‘zi yetarli bo‘lmaydi. Kiyim ichki o‘lchamlarining gavda o‘lchamlaridan farqini ham hisobga olish zarur. Ayollar milliy ko‘ylagi gavdada erkin turishi, bichish va tikilish texnologiyasining soddaligi bilan boshqa ko‘ylaklardan ajralib turadi. Bu model mavsumbop bo‘lib, har mavsumda faslga qarab turli xil gazlamalardan tikib kiyiladi. Ushbu model o‘zining qulayligi, inson gavdasida erkin turishi, gigiyenik talablarga javob berishi va har qanday yoshdagagi xotin-qizlarga yarashib turishi bilan boshqa kiyimlardan ajralib turadi. Ko‘ylakni yozgi mavsumlarda paxta, ipak, lavsan tolali, havo o‘tkazuvchanligi bor gigiyenik talabga javob bera oladigan har xil turdagagi gazlamalardan tikish mumkin. Qishki mavsumlarda issiq tutuvchi gazlamalardan (sherst, jerst, vilyur va paxmoq gazlamalardan) yengi uzun, yoqali qilib tikilishi mumkin.

Milliy liboslarimiz bejirimliligi, o‘ziga xos ko‘rkamligi barchaga azaldan ma’lum va mashhurdir. Uning iqlim sharoitimidagi mos kelishi, milliy gazlamalarimizdan tikilganda barcha ayollarning husniga-husn qo‘sishi uning ko‘p katta-kichik qizlar, kelinchaklarimiz tomonidan sevib kiyilishidan darakdir. Ayollar milliy ko‘ylagi deb, turli xil koketkali «o‘zbekcha» ko‘ylaklar, nimchalarni nazarda tutishimiz mumkin. Koketka, yoqa va yeng shakllarini o‘zgartirish yo‘li bilan ko‘ylakning fasonini turlicha qilishimiz mumkin. Ba’zi ko‘ylaklar yoqa chetlari va manjetlariga, yoqasiz ko‘ylaklarda esa yoqa o‘mizlariga kantlar, kashtalar, baxyaqatorlar, biser-munchoqlar tikish va boshqa usullar bilan bezak beriladi. Shuningdek, libos fasonini tanlashda gazlamalarning zichligi, uning tolaviy tarkibi, gullarining shakli va boshqa xususiyatlari hisobga olinishi muhimdir. «O‘zbekcha» ko‘ylaklar aksariyati simmetrik ko‘rinishda bo‘lib, ularni bichishda andazalarni gazlamalarning gullariga mos keltirishda matematik aniqlikka tayanish talab etiladi. Milliy adres va atlas, beqasam kabi matolarning ham o‘ziga xosliklari borligini yodda tutish lozim. Milliy matolalarimizdan libos tikishda ularning eni, tor-kengligi hisobga olinadi, shuningdek adres va atlas matolariga xos ma’lum bir metrlarda takrorlanuvchi «chiziq»ni tashlab bichish lozim bo‘ladi. Milliy tipdagи liboslarga xos burmalar bir tekisda teng taqsimlanib bichilishi maqsadga muvofiqdir. Xotin qizlar milliy ko‘ylaklari uchun gazlama tanlashda shaxsning yoshi albatta e’tiborga olinishi kerak. Ayollar milliy ko‘ylaklari asosan gulli gazlamalardan tayyorlanib, u havo o‘tkazuvchan, gigiyenik talabga javob beradigan bo‘lishi kerak.

Milliy ko‘ylaklar gullar, shakllar aks ettirilgan matolardan tikilishi mumkin. 15-20 yoshgacha bo‘lgan qizlar uchun asosan guldor, qizil, sariq rangdagi gazlamalar tanlanadi. 30-50 yoshdagi ayollar uchun o‘ta qizil ranglar xush ko‘rinmaydi. 50-80 yoshdagi ayollar uchun oddiyroq, ko‘k, kulrang, oq-qora rang aralash gazlamalar tanlanadi. Ayollar milliy ko‘ylagini tikishda, albatta qaysi faslda kiyilishiga qarab gazlama tanlanadi. Yozning issiq oylarida namni o‘ziga tortuvchi, havo o‘tkazuvchanligi yaxshi gazlamalar (shtapel, chit, batis, lavsan) tanlanadi. Turli fasondagi ayollar milliy ko‘ylagini tikish uchun avvalo gazlamalar xarid qilinadi. Buning uchun har qanday razmerdagi milliy ko‘ylak uchun ketadigan gazlamalar sarfini bilishimiz zarur. Gazlamalarni xarid qilishda gazlamaning eniga e’tibor berish lozim. Turli razmerdagi ko‘ylaklar uchun ketadigan gazlama sarfini aniqlash uchun kiyim uzunligiga yeng uzunligi o‘lchami qo‘silishi kerak. Milliy ko‘ylak ikki qavatli koketka tufayli qomatning yuqori tayanch sathiga yopishib, ko‘krak va kuraklar chizig‘idan boshlab kiyim ostidagi havo bo‘shlig‘ining hajmini oshiradi. Ko‘ylak old koketka, orqa koketka, old tana, orqa tana detallaridan iborat. Orqa koketkasining ko‘ndalang chizig‘i kuraklar markazining sathidan o‘tadi. Ularning shakli va konstruktiv tuzilishi turlicha bo‘lishi mumkin: kaltaroq, uzunroq, dumaloqroq, to‘g‘ri chiziqli yoki turli shakllarda. Old koketkasining ko‘ndalang chizig‘i ko‘krak nuqtasi ustidan model xususiyatiga bog‘liq holda 2 - 6 sm masofada o‘tishi mumkin. Uning uzunligi va shakli modelga moslab o‘tkaziladi.

Koketka yaxlit bichilgan yoki ikki bo‘lakli bo‘lishi mumkin. Ko‘ylakning pastki qismi tanasi keng to‘g‘ri, trapetsiyasimon kengaygan, uzun yoki kalta moda yo‘nalishiga bog‘liq holda quriladi. Koketkali milliy ko‘ylakni modellashga xos xususiyatlarga yana quyidagilar ham kiradi: old koketkasining kengligi 0,5—0,7 sm ga toraytiriladi, ya’ni koketkaning o‘rta chizig‘i chap tomonga suriladi. Ayollar milliy ko‘ylagini yenglari ham hozirgi zamon fasonlari bo‘yicha turlicha ko‘rinish kasb etmoqda. To‘g‘ri bichimli oddiy yengga fason chiziqlarini kiritib qayta modellashtirib olishimiz mumkin. Yengni to‘g‘ri bichish va o‘rniga qo‘yib xatosiz tikish - libosning 50 % qismini sifatli va to‘g‘ri tikish degani. Konstruksiya jihatdan yenglar o‘tqazma, reglan, yaxlit bichilgan va kombinatsion yenglarga bo‘linadi. Yeng uzunasidagi choclar soni bo‘yicha: yakka chocli yeng, ikki chocli yeng va uch chocli yenglarga bo‘linadi. Modelda mo‘ljallanganiga muvofiq yeng uchi bo‘rtma chocli, manjetsiz, o‘tqazma manjetli, qaytarma manjetli, astarli yoki astarsiz bo‘lishi mumkin. Kiyim odam tashqi qiyofasini o‘zgartirishda katta rol o‘ynaydi. U qiyofani 60% gacha o‘zgartiradi. Kiyim kishining badiiy didini ifodalaydi, madaniy saviyasini belgilaydi, shaxsni xarakterlaydi. Kiyim kishiga nisbatan turli his-tuyg‘ular uyg‘otadi. Masalan: jiddiylik, vazminlik, jo‘shqinlik, sovuqlik, oddiylik va boshqalar. Hozirgi zamon kiyimlari jamiyatimiz talabiga mos kelishi kerak. Ya’ni chiroyli zamonaviy modada, gigienik va qulay, milliyligimizni unutmagan holda loyihamanishi va tikilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. X.X.Kamilova N. K. Hamrayeva "Tikuv buyumlarini konstruksiyalash". Toshkent "Cho'lpon" 2011.
2. M. Jabborova. "Tikuvchilik texnologiyasi" Toshkent. "O'qituvchi" 1989.
3. M. S. Goipova va boshqalar. "Tikuvchilik texnologiyasi asoslari" 2006.
4. www.library.sammi.uz
5. www.ziyouz.com